

BINAFSHA LABIDA KULGAN XOTIRALAR YOXUD ZULFIYAXONIM

Isaqova Shirina Sodiqjon qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Jamalaksoch qizlar boychechak ishqida qirlarga yugura boshlagan erta bahor kezlari o'sha mashhur misralar tilimizda aylana boshlaydi: "Binafsha labida, erlarda bahor..." Sarin shabbodalar hur-hur keza boshlagan iforli damlar O'zbekiston xalq shoiri Zulfiyaxonim tavallud topgan kun bilan chambarchas bog'langanligi ham Yaratganning bir inoyatidir balki... Havolar tozarib ko'ngillar baytu o'lan sari oshiqqan ko'klam pallasida nafaqat vafo va sadoqat kuychisi, balki jamiyat po'rtanalariga "yelka tutgan" jasoratli qalb egasi sharafiga musharraf bo'lgan shoiramizning aziz xotirasini qo'msadik bilan o'tgan asrning eng mashhur ayollaridan biri – Zulfiya Isroilova o'ziga xos ruhiyat poydevori, taniqli jamoat arbobining qat'iy mezonlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: hayot yo'li, ijodiy faoliyat, komillik sari, hikoya va she'rlari, jahon adabiyoti, hayotning og'ir zarbalari, ehtirom.

Аннотация: Ранней весной, когда молодые девушки из-за любви к мальчикам бегут в горы, в нашем языке начинают циркулировать знаменитые стихи: «Весна на губах пурпурных, на земле...» Счастливые минуты, когда сладкие субботы начинают течь свободно, тесно связаны с днем рождения народной поэтессы Узбекистана Зульфийи ханым. Это тоже милость Создателя... Мы чтим светлую память нашей поэтессы, одной из самых знаменитых. женщины прошлого века - Зульфийа Исроилова, которая была не только певицей верности и преданности, но и смелой душой, "раскрывшей" двери общества в период любви, - говорят об уникальной психологической основе, строгих критериях. известного общественного деятеля.

Ключевые слова: жизненный путь, творческая деятельность, путь к совершенству, рассказы и стихи, мировая литература, тяжелые жизненные удары, уважение.

Annotation: In the early spring when young girls start running to the mountains for the love of boys, those famous verses start to circulate in our language: "Spring is on the lips of purple, on the earth..." The happy moments when the sweet sabbaths start to flow freely are closely connected with the day when the folk poet of Uzbekistan Zulfiya Khanim was born. It is also a grace of the Creator... We are honoring the dear memory of our poetess, one of the most famous women of the last century - Zulfiya Isroilova, who was not only a singer of loyalty and devotion, but also a brave soul who "shouldered" the doors of society in the period of love. there is talk about a unique psychological foundation, strict criteria of a well-known public figure.

Key words: life path, creative activity, towards perfection, stories and poems, world literature, hard blows of life, respect.

ZULFIYA (taxallusi; to'liq ismsharifi Zulfiya Isroilova) (1915.1.3 — Toshkent — 1996.1.8) shoira, jurnalist, tarjimon, jamoat arbobi. O'zbekiston xalq shoirasi (1965). Mehnat Qahramoni (1984). O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya Isroilova 1915 yil 1 martda Toshkentning O'qchi mahallasida degrez oilasida tug'ilgan. Shoira she'rlarining el aro mashhurligi tasodifiy emas. U bolaligidan xotin-qizlar bilim yurtida o'qib yurgan vaqtlaridayoq (1931–1934) adabiy to'garaklarga qatnashib, she'rlar mashq qiladi, olamga Hayrat ko'zi bilan qarovchi, uning boshqalar ko'rolmaydigan jihatlarini ilg'ovchi Qizaloq ekanligi bilan ajralib turardi. Buning ustiga, oilasidagi muhit ham yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni alangalatardi. Shoira bolaligini shunday Eslaydi: "Otamni... Isroil degrez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi.

Otamning Hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq ko'rar edim. Otamday qudratli Odam yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishiga boqib, Hayratda qolar edim. Uning qo'llari cho'g'ga aylangan temir parchasini istagan Shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali-hanuz Otamday bolishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov Berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham Muyassar bo'lavermas ekan. Mening onam o'ziningta'bincha, "usti butun – ichi Tutun" ayollardan edi. U hamma vaqt kamgap, xayolchan edi, lekin fikrlari, o'ylari Mudroq emasligini, unga mutelik, zaiflik yot ekan-ligini bilar edim. Ruhidagi Ma'yuslik, ovozidagi hazinlik faqat uning xarakteriga xos bir sifatgina edi, xolos. Onamning qancha-qancha qo'shiq va afsonalarni, doston va er-taklarni bilisjiiga Aqlim bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va ertaklar bizga benihoya huzur bag'ishlar, o'ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etardi. Aminmanki, mo'jizalar Yaratishga qodir, jahonni ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari yetaklovchi So'zga shaydolik hissini mening qalbidamda ostonam hatlab ko'chaga chiqmagan oddiy Ayol – onam uyg'otgan..." Ayniqsa, bunda onasi Xadichabegimning roli katta.

Zulfiya she'riyati ana shunday pokiza buloqlardan suv Ichgan ijoddir. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, inson ruhiya-tini g'ajib Tashlay oladigan hijron to'g'risidagi, tabiatning ajib bir holati borasidagi she'rlari Hech kimni befarq qoldirmaydi. O'rta maktab va ayollar pedagogik bilim yurtini a'lo baholarga tugatgan .

Zulfiya respublikaning turli gazeta jurnallarida faoliyat yuritadi. Uning ilk she'ri 1931 y. da "Ishchi" gaz. da bosilgan. Dastlab 1932 y. "Hayot varaqalari" she'rlar to'plami nashr etilgan. Ular asosan yoshlik, muhabbat, inson qalbi haqida edi. 1938-yillarda u turli yirik nashriyotlarda, gazeta-jurnallarda faoliyat yuritadi, turli respublika va respublikalararo tashkilotlariga a'zo bo'ladi. Ayollar bilim yurtini tamomlagandan so'ng, 1935-yilda Zulfiya O'zbekiston fanlar qo'mitasi qoshidagi, Til va adabiyot instituti aspiranturasiga o'qishga kiradi. Aynan shu paytlar institutda Hamid Olimjon ham faoliyat yuritardi. Keyinchalik o'qituvchi Hamid Olimjon va talaba Zulfiya o'rtasidagi iliq munosabatlar muhabbatga aylanib, 1935-yilning 23-iyul kuni ikkisi oila quradi. Zulfiya 1941-1950 yillarda O'zbekiston davlat nashriyotida bo'lim mudiri, 1950 – 53-yillarda "Saodat" jurnalida bo'lim mudiri, va keyinchalik bosh muharrir bo'lib faoliyat yuritadi. Ikkinchi Jahon urushi boshlanganda, Zulfiya ham ijodkorlar do'stlari safida turib urushning birinchi oylaridayoq biri otasini, biri o'g'lini, biri og'a-inisini, biri sevimli yorini frontga kuzatib, ular o'rnida kunni tunga ulab mehnat qilayotgan o'zbek ayollarining lirik obrazini yaratishga kirishadi. Shoironing 1942-yil kuzida yozilgan „Hijron“ sarlavhali she'rida hijronning achchiq damlarida orzu-umidini so'ndirmagan yosh kelin obrazini ko'rish mumkin:

... Yorim, sevar yorim jo'nadi jangga,

Mening yuragimga tushdi hijron-dog'.

Men sevgan dildorningsevgan yurti bor, Ishq doim erk uchun hijronga rozi.

Bu hijron mangumas, visoli ham bor –

Qahraton qishlarning bo'lganday yozi.

Shundan keyin uning "Temiroy" (1934), "She'rlar", "Qizlar qo'shig'i" (1939) she'riy kitoblari e'lon qilingan. Zulfiya she'riy ijodining porlashi "Uni Farhod der edilar" (1943), "Hijron kunlarida" (1944) va "Hulkar" (1947) to'plamlari bilan bog'liq. 1944 yil turmush o'rtog'i Hamid Olimjon avtohalokatda vafot etadi. Shoironing shoir Hamid Olimjon xotirasiga bag'ishlab yaratgan "Hayot jilosi", "O'rik gullaganda", "Xayollar", "Sog'inish" va boshqa to'plamlaridan joy olgan she'rlari tuyg'ular, falsafiy umumlashmalar hayotga muhabbat ruhi bilan sug'orilgan she'rlar turkumiga kiradi. Zulfiyaning 1947-yilda yozilgan „Bahor keldi seni so'roqlab“ she'ri

insoniy muhabbatni haqqoniy tasvirlovchi badiiy pishiq, ta'sir kuchi g'oyat o'tkir she'r bo'lib, bahor kechalarida lirik qahramonning bedor qalbini qiynayotgan hijron nidosidir.

Zulfiyaning 1947-yilda yozilgan „Bahor keldi seni so'roqlab“ she'ri insoniy muhabbatni haqqoniy tasvirlovchi badiiy pishiq, ta'sir kuchi g'oyat o'tkir she'r bo'lib, bahor kechalarida lirik qahramonning bedor qalbini qiynayotgan hijron nidosidir. Ayniqsa, H. Olimjonning bevaqt vafotidan keyin (1944) yozilgan, ruhiy silsilalar va qalb iztiroblari bilan to'la she'rlar Zulfiya ijodida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lganidan darak beradi. U shaxsiy fojiasi tasviri orqali 2-jahon urushidan katta talafot va yo'qotishlar bilan chiqqan xalqning dard va alamlarini ifodaladi. 40-y. lar oxirida e'lon qilingan Sovet davlatining san'at va adabiyot to'g'risidagi qarorlari o'zbek adabiyoti-tiga ham katta zarar keltirdi. Zulfiya bad-bin kayfiyatlar — pessimistik kechinmalar kuychisi sifatida ta'na toshlari ostida qoldi. Shundan keyin u, boshqa qalamkash birodarlari singari, "davri g'oyalari" ni ifodalovchi she'rlar yozishga o'tdi. Lekin ko'p o'tmay, o'zbek ayollari hayotini yaxshi biluvchi shoira va jurnalist sifatida dugonalari haqida she'r va publitsistik maqolalar yozdi, ularni ijtimoiy faollikka chaqirdi, insoniy haq-huquqlarining poymol bo'lmasligi uchun kurashdi.

Shoiraning shoir Hamid Olimjon xotirasiga bag'ishlab yaratgan "Hayot jilosi", "O'rik gullaganda", "Xayollar", "Sog'inish" va boshqa to'plamlaridan joy olgan she'rlari tuyg'ular, falsafiy umumlashmalar hayotga muhabbat ruhi bilan sug'orilgan she'rlar turkumiga kiradi. 1944 yil turmush o'rtog'i Hamid Olimjon avtohalokatda vafot etadi. Shoiraning shoir Hamid Olimjon xotirasiga bag'ishlab yaratgan "Hayot jilosi", "O'rik gullaganda", "Xayollar", "Sog'inish" va boshqa to'plamlaridan joy olgan she'rlari tuyg'ular, falsafiy umumlashmalar hayotga muhabbat ruhi bilan sug'orilgan she'rlar turkumiga kiradi. 50-y.larning 2-yarmida u Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o'tgan harakatida faol qatnashib, jahonning ko'pgina mamlakatlarida bo'ldi. Hindiston, Misr, Yaponiya va qo'shni respublikalarga qilgan safari shoira ijodida chuqur iz qoldirdi. "Mushoira", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Qozog'iston o'lanlari", "Men chizolmagan surat" singari she'rlari Zulfiyaga shuhrat keltirdi. Zulfiya she'rlarida tasvir etilayotgan hayot ko'lami kengayib, ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. 70-y. lardan boshlab uning ijodidagi milliy hayot tasvirida yangi ranglar kamalagi paydo bo'ldi, haqqoniylik va his-hayajon kuchaydi. "O'ylar" (1965) she'riy guldastasi b-n boshlangan voqelikni falsafiy idrok etish tamoyili "Visol" (1972), "Yillar, yillar..." (1975) she'riy kitoblarida davom etib, shoira ijodida chinakam badiiy yuksalish davri boshlanganini namoyish etdi. U yana doston janriga qaytib, ustoz Oybekning so'nggi safariga bag'ishlangan "Quyoshli qalam" (1970) dostonini yaratdi. Ayni paytda shoira bolalarga bag'ishlangan turkum she'rlar ham yozdi ("Lolaqizg'aldoq", 1975).

Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o'rganish va nashr etish ishiga bag'ishladi. Ana shu jarayonning uzviy qismi sifatida u shoirning "Semurg' yoki Parizod va Bunyod" dostoni asosida qo'g'irchoq teatri uchun "Semurg'" pyesasi (S. Somova b-n hamkorlikda) hamda "Zaynab va Omon" operasi librettosini yozdi. A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov. N. A. Nekrasov, M. Voqif, L. Ukrainka, M. Dilboziy, S. Kaputikyan, E. Ognetsvet, Mustay Karim, Amrita Pritam, Ye. Bagryana va b. ning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning asarlari ko'plab chet tillarda, shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan. Zulfiya xalqaro Javaharlal Neru (1968), "Nilufar" (1971) mukofotlari hamda Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti (1970) laureati. Shuningdek, u Bolgariyaning "Kirill va Mefodiy" (1972) ordeniga sazovor bo'lgan.

Mustaqillik yillarida, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at sohasiga katta e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda. Vatanimiz, xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan atoqli adiblar, fan va madaniyat namoyandalarning el-yurtimiz oldidagi ulkan xizmatlari munosib baholanib, ularning xotirasini abadiylashtirish, merosini asrab-avaylash va o'rganish borasida izchil va keng qamrovli ishlar amalga

oshirilmoqda. Istiqloq yillarida bir guruh marhum ulug' shoir va yozuvchilarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangani, yubileylari keng nishonlangani, poytaxtimizda G'afur G'ulom va Abdulla Qahhor kabi ustoz adiblarimizga muhtasham haykallar o'rnatilgani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Davlatimizni birinchi rahbarining 2007 yil 13 sentabrda qabul qilingan "Toshkent shahrida O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaning haykalini o'rnatish to'g'risida"gi qarori xalqimizning sevimli farzandi, taniqli jamoat arbobi Zulfiyaning milliy adabiyotimizga qo'shgan ulkan hissasi, betakror ijodiy merosi va ibratli faoliyatining yana bir amaliy e'tirofi bo'ldi. 2008 yil 1 mart kuni poytaxtimizda O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaning haykali ochildi. Yurtboshimizning munis va mehnatkash, hayotning har qanday suron va to'fonlari qarshisida o'zini yo'qotmay, sabr-toqat va shukronalik bilan yashaydigan o'zbek ayoli, o'zbek shoirasining timsoli aks etishi kerak, degan g'oyasi O'zbekiston xalq rassomi, haykaltarosh Ravshan Mirtojiev ishlagan haykalda to'la ifoda etilgan.

Bahorning ilk kuni – Zulfiya tavallud topgan ayyomda ardoqli shoira haykali o'rnatilgan xiyobon bayramona ko'rkka burkandi. Bu yerga davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, shoir va yozuvchilar, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari, shoiraning muxlislari va farzandlari, jamoatchilik vakillari yig'ildi. O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaning haykali ochilishiga bag'ishlangan marosimni Toshkent shahri hokimi A.To'xtayev ochdi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Davlat maslahatchisi X.Sultonov, O'zbekiston Qahramonlari, xalq shoirlari A.Oripov va E.Vohidov, O'zbekiston xalq shoirasi, "Saodat" jurnali bosh muharriri O.Hojiyeva, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, yosh shoira D.Usmonova, Zulfiyaning qizi, adabiyotshunos H. Olimjonova Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda barcha jabhalarda izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlarda xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ma'naviyatini yanada yuksaltirish ustuvor o'rin tutayotganini ta'kidladilar. Adabiyot va san'at, madaniyat sohasi ravnaqiga, ijodkor ziyolilar mehnatiga b Zulfiya nomidagi davlat mukofoti — O'zbekiston Respublikasining Davlat mukofotlaridan biri. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida" 1999-yil 10-iyundagi farmoniga binoan ta'sis qilingan. Maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida a'lo xulqi, zukkoligi, donoligi, tashabbuskorligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari bilan alohida iste'dodini namoyon qilib ta'lim olayotgan, istiqloq g'oyalarini amalga oshirish yo'lida astoydil mehnat qilayotgan 30 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarga adabiyot, madaniyat, sport, san'at, fan, ta'lim sohalaridagi alohida yutuqlari uchun beriladi. Mukofot Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining ikkitadan vakillariga jami 28 nafarga beriladi. Mukofotning har biri eng kam oylik ish haqqining 50 baravari miqdorida tayinlangan. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibalari bo'lgan maktab, litsey, kollej o'quvchilari tanlagan yo'nalishlari bo'yicha oliy o'quv yurtlariga imtihonsiz qabul qilinadi, ularga ko'krak nishoni va diplomi topshiriladi. Mukofot O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasining raisi rahbarlik qiladigan komissiya xulosalari asosida Prezident qarori bilan har yili 8-mart — Xotin-qizlar kuni bayrami arafasida beriladi. Berilayotgan katta e'tibor va g'amxo'rlik buning yana bir yorqin dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „Sadoqat saroyining mangu malikasi Zulfiyaxonim yohud Hamid Olimjonning so'ngsiz armoni” Nurali Qobol Toshkent-2018, 120-bet.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/xotiram-siniqlari-zulfiya.html>
3. „Bahor, muhabbat va sadoqat kuychisi Zulfiya Isroilova tavalludining 108 yilligi munosabati bilan Metodik bibliografik qo'llanma” A.S.Pushkin nomidagi nashriyot, Toshkent – 2023, 56-124 bet.
4. yberleninka.ru/article/n/zulfiyaning-hayoti-va-ijodidagi-o-ziga-xoslik/viewer „Zulfiyaning hayot va ijodidagi o'ziga xoslik” F. Musurvonova Surxandaryo viloyati - 2022, 8-9 betlar